2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘T: 631.633.58

EKISH MUDDATLARI VA TIZIMLARI HAMDA MINERAL O‘G‘ITLAR BILAN OZIQLANTIRISH MEYORLARINING JO‘XORI SILOS MASSA XOSILI SIFATIGA TA’SIRI

NURIMBETOVA AYSULU G‘AYBULLA QIZI
Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktaranti
ORCID ID: 0009-0003-1201-1744

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda jo‘xorini ekish muddatlari va tizimlari hamda mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish meyorlarining silosbop ko‘k massa hosili va sifatiga ta’siri o‘rganiladi. Tajribalarda ekish vaqti va usullarining o‘simlik o‘sishi, rivojlanishi, ko‘chat qalinligi hamda hosildorlikka ta’siri baholanadi. Shuningdek, azotli, fosforli va kaliyli o‘g‘itlarni maqbul nisbat va meyorlarda qo‘llashning ko‘k massa to‘planishi, ozuqaviy qiymati va silos tayyorlash xususiyatlariga ta’siri tahlil qilinadi. Olingan natijalar asosida muayyan tuproq-iqlim sharoitida yuqori hosil va sifatli silos massasi yetishtirish uchun samarali agrotexnik tadbirlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.
Kalit so‘zlar: jo‘xori, silos massa, ekish muddatlari, ekish tizimlari, mineral o‘g‘itlar, oziqlantirish me’yorlari, hosil sifati, yashil massa hosildorligi, quruq modda, ozuqaviy qiymat, azotli o‘g‘itlar, fosforli o‘g‘itlar, kaliyli o‘g‘itlar, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi, agrotexnologiya, vegetatsiya davri, fotosintez, o‘simliklar qalinligi, silosbop ekinlar.

Аннотация. В данном исследовании изучается влияние сроков и систем посева сорго, а также норм внесения минеральных удобрений на урожайность и качество силосной зеленой массы. В ходе экспериментов оценивается влияние сроков и методов посева на рост, развитие растений, плотность рассады и урожайность. Также анализируется влияние внесения азотных, фосфорных и калийных удобрений в оптимальных пропорциях и нормах на накопление зеленой массы, питательную ценность и свойства силосной заготовки. На основе полученных результатов планируется разработка рекомендаций по эффективным агротехническим мероприятиям для производства высокоурожайной и высококачественной силосной массы в конкретных почвенно-климатических условиях.
Ключевые слова: кукуруза, масса силоса, сроки посева, системы посева, минеральные удобрения, стандарты кормления, качество урожая, урожайность зеленой массы, сухое вещество, питательная ценность, азотные удобрения, фосфорные удобрения, калийные удобрения, рост и развитие растений, агротехнология, вегетационный период, фотосинтез, толщина растения, силосные культуры.

Abstract. This study examines the impact of sowing dates, planting systems, and mineral fertilizer application rates on the yield and quality of green biomass intended for silage production in sorghum. The experiments evaluate how the timing and methods of sowing influence plant growth, development, stand density, and overall productivity. Furthermore, the study analyzes the effects of applying nitrogen, phosphorus, and potassium fertilizers—at optimal ratios and rates—on green biomass accumulation, nutritional value, and suitability for silage preparation. Based on the findings, the objective is to develop recommendations for effective agrotechnical practices to ensure high yields and high-quality silage biomass under specific soil and climatic conditions.
Keywords: maize, silage mass, sowing dates, planting systems, mineral fertilizers, application rates, crop quality, green mass yield, dry matter, nutritional value, nitrogen fertilizers, phosphorus fertilizers, potassium fertilizers, plant growth and development, agrotechnology, growing season, photosynthesis, plant density, silage crops.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 martdagi PQ-4243-son «Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorining 9-bandida ozuqabop ekinlarning yangi navlari va duragaylarini yaratish, ularning agrotexnologiyalarini takomillashtirish, birlamchi urug‘chilik ishlarini olib borish, tuproq holatini yaxshilovchi kuchsiz va o‘rta darajada sho‘rlangan tuproq sharoitlariga mos bo‘lgan ozuqabop ekinlar maydonlarini kengaytirish kabi qator vazifalar belgilangan. Bu borada va yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish, almashlab ekish tizimlariga bunday ekinlarni kiritish, oziq-ovqatda parxezbop donlar va chorvachilikda sifatli yem-xashaklar hajmini oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Tadqiqotimizda jo‘xori silos massasi tarkibidagi oziqa birligi va hazmlanadigan protein miqdorlari aniqlandi. Urug‘ ekish muddatlari bo‘yicha yuqori natija urug‘lar 20-aprel muddatida ekilgan variantlarda kuzatilganligi aniqlandi.

ADABIYOTAR SHARHI

Sokayev K.YE. va boshqa olimlarning ma’lumotlarida, jo‘xori kuchli ildiz tizimi tufayli og‘ir metallarga boy tuproqlarda fitomeliorant rolini o‘ynaydi. Aniqrog‘i, fitoremediatsiya og‘ir metallar bilan ifloslangan tuproqlarni jo‘xori o‘simliklari yordamida tozalashdir. Biroq, hosil bo‘lgan mahsulot oziq-ovqat yoki ozuqa maqsadlarida ishlatilmasligi, olingan biomassa yoki donni texnik maqsadlarda, masalan, bioetanol, sanoat spirti ishlab chiqarishda qayta ishlashda qo‘llash kerakligini tavsiya etgan [7; 15-54-b.].

Balakay S.G.tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, don jo‘xori biologik talablariga asosan, o‘sib, rivojlanishida, issiqqa, yoruqqa va namlkka talabchan. Jo‘xori qurg‘oqchilikka chidamli, lekin don yoki yashil massa yetishtirishda ham sug‘orishga talabchan [4; 2-8-b.].

TADQIQOT USLUBI

Dala tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatishlar «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых раёнах», «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» (O‘zPITI) uslubiy qo‘llanmalari asosida olib borildi. Olingan natijalarning statistik tahlili Misrosoft exsel dasturi va B.A.Dospexov uslubiy qo‘llanmasi hamda iqtisodiy samaradorlik N.A.Baranov usuli asosida bajarildi.

Jumladan, urug‘lar 20-aprel muddatida 70x10-1 tizimda gektariga 142,8 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N150P60K75 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 10-variantda 1 kg silos massasi tarkibidagi oziqa birligi 0,20 ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 8064,3 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,47 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 995,9 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x10-1 tizimda gektariga 142,8 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N150P60K75 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 1- va 19-variantlarga taqqoslanganda, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 1-variantga nisbatan 687,3 kg/ga miqdorida kam, 19-variantga nisbatan

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

399,9 kg/ga gacha yuqori, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 124,7-156,7 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x15-1 tizimda gektariga 95,2 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N150P60K75 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 11-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,20 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 8400,1 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,51 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 1054,2 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x15-1 tizimda gektariga 95,2 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N150P60K75 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 2- va 20-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 2-variantga nisbatan 1351,1 kg/ga miqdorida kam, 20-variantga nisbatan 1077,5 kg/ga gacha yuqori, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 156,3-214,0 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x20-1 tizimda gektariga 71,4 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N150P60K75 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 12-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,21 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 8610,4 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,39 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 979,9 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x20-1 tizimda gektariga 71,4 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N150P60K75 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 3- va 21-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 3-variantga nisbatan 667,8 kg/ga miqdorida kam, 21-variantga nisbatan 830,2 kg/ga gacha yuqori, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 92,4-135,8 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x10-1 tizimda gektariga 142,8 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N200P80K100 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 13-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,22 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 9284,3 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,41 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 1017,0 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x10-1 tizimda gektariga 142,8 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N200P80K100 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 4- va 22-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 1074,2-873,8 kg/ga, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 109,8-135,9 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x15-1 tizimda gektariga 95,2 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N200P80K100 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 14-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,23 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 10115,4 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,44 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 1073,1 kg ni tashkil etdi.

1-jadval

Urug‘ ekish muddatlari va tizimlari hamda mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish meyorlarining jo‘xori silos massa hosilining sifat ko‘rsatkichlari, 2023-2025 yillar

№	Urug‘ ekish muddatlari	Urug‘ ekish tizimi	Nazariy ko‘chat qalinligi, ming tup/ga	Mineral o‘g‘itlarning yillik meyorlari, kg/ga	2023-2025 yillarda o‘rtacha silos massa hosili, s/ga	1 kg silos massadagi oziqa birligi	1 ga maydondan olingan oziqa birligi, kg/ga	100 kg silos massadagi hazmlanadigan protein miqdori, kg	1 ga maydondan olingan hazmlanadigan protein miqdori, kg/ga
1.	10-aprel	70x10-1	142,8	N150P60K75	397,8	0,22	8751,6	2,19	871,2
2.		70x15-1	95,2		406,3	0,24	9751,2	2,21	897,9
3.		70x20-1	71,4		403,4	0,23	9278,2	2,20	887,5
4.		70x10-1	142,8	N200P80K100	410,5	0,20	8210,1	2,21	907,2
5.		70x15-1	95,2		426,4	0,23	9807,2	2,22	946,6
6.		70x20-1	71,4		422,2	0,20	8444,1	2,25	950,0
7.		70x10-1	142,8	N250P100K125	431	0,23	9913,3	2,31	995,6
8.		70x15-1	95,2		447,3	0,24	10735,2	2,42	1082,5
9.		70x20-1	71,4		439,4	0,23	10106,2	2,32	1019,4
10.	20-aprel	70x10-1	142,8	N150P60K75	403,2	0,20	8064,3	2,47	995,9
11.		70x15-1	95,2		420	0,20	8400,1	2,51	1054,2
12.		70x20-1	71,4		410	0,21	8610,4	2,39	979,9
13.		70x10-1	142,8	N200P80K100	422	0,22	9284,3	2,41	1017,0
14.		70x15-1	95,2		439,8	0,23	10115,4	2,44	1073,1
15.		70x20-1	71,4		431,1	0,21	9053,1	2,39	1030,3
16.		70x10-1	142,8	N250P100K125	441,5	0,24	10596,4	2,41	1064,0
17.		70x15-1	95,2		461,4	0,25	11535,0	2,43	1121,2
18.		70x20-1	71,4		444,8	0,24	10675,2	2,38	1058,6
19.	30-aprel	70x10-1	142,8	N150P60K75	383,2	0,20	7664,4	2,19	839,2
20.		70x15-1	95,2		385,4	0,19	7322,6	2,18	840,2
21.		70x20-1	71,4		389	0,20	7780,2	2,17	844,1
22.		70x10-1	142,8	N200P80K100	400,5	0,21	8410,5	2,20	881,1
23.		70x15-1	95,2		417,9	0,21	8775,9	2,22	927,7
24.		70x20-1	71,4		408,3	0,20	8166,4	2,25	918,7
25.		70x10-1	142,8	N250P100K125	416,7	0,21	8750,7	2,41	1004,2
26.		70x15-1	95,2		438,9	0,22	9655,8	2,43	1066,5
27.		70x20-1	71,4		429,3	0,24	10303,2	2,42	1038,9

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x15-1 tizimda gektariga 95,2 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N200P80K100 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 5- va 23-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 308,2-1339,5 kg ga, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 126,5-145,4 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x20-1 tizimda gektariga 71,4 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N200P80K100 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 15-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,21 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 9053,1 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,39 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 1030,3 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x20-1 tizimda gektariga 71,4 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N200P80K100 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 6- va 24-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 609,0-886,7 kg/ga, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 80,3-111,6 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x10-1 tizimda gektariga 142,8 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N250P100K125 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 16-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,24 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 10596,4 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,41 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 1064,0 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x10-1 tizimda gektariga 142,8 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N250P100K125 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 7- va 25-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 683,1-1845,7 kg/ga, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 68,4-59,8 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x15-1 tizimda gektariga 95,2 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N250P100K125 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 17-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,25 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 11535,0 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,43 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 1121,2 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x15-1 tizimda gektariga 95,2 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N250P100K125 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 8- va 26-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 799,8-1879,2 kg ga, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 38,7-54,7 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

XULOSA

Urug‘lar 20-aprel muddatida 70x20-1 tizimda gektariga 71,4 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N250P100K125

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 18-variantda 1 kg silos massasisi tarkibidagi oziqa birligi 0,24 kg ni, 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 10675,2 kg/ga ni, 100 kg silos massa tarkibidagi hazmlanadigan protein miqdori 2,38 kg ni, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori 1058,6 kg ni tashkil etib, urug‘lar 10 va 30 aprel muddatlarida 70x20-1 tizimda gektariga 71,4 ming tup ko‘chat qalinligida ekilib, o‘suv davrida mineral o‘g‘itlarning N250P100K125 kg/ga meyorlari bilan oziqlantirilgan 9- va 27-variantlarga nisbatan 1 ga maydondan olingan oziqa birligi 569,0-372,0 kg/ga, bir gektar maydondan olingan xazmlanadigan protein miqdori esa 39,2-19,7 kg ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xujaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash tug‘risida”gi PF-3955 son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5009-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243-son qarori.

4. Бегдуллаева Т., Орел Л., Руденко И., Ибрагимов Н., Ламерс Дж., Тодерич К.Н, Халикулов З. Мартиус К. Продуктивность местных и интродуцированных сортов саҳарного сорго в условиях Каракалпакстана.// Вестник ККО АН РУз. 2009. С. 215.

5. Доспехов Б.А. “Методика полевого опыта”. М.: Агропромиздат.- 1985. С. 347.

6. Нурматов Ш., Мирзажонов Қ. ва бошқалар. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. // Тошкент-2007. Б 8-51.

7. Сокаев К.Е. Агроэкологический мониторинг почв и эффективность удобрений в предгорьях центрального Кавказа [Текст]. // ФГУ Станция агрохимической службы «Северо-Осетинская» - Владикавказ. – 2009. С. 77-130.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy